

## TA'LIMDA O'QUVCHILARNING YOSH DAVRI PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

*Madaminjonov Xojiakbar Saydamin o'g'li*  
*Mirzo Ulug'bek nomidagi*  
*O'zbekiston Milliy universiteti*  
*Ijtimoiy fanlar fakulteti magistranti*

### ANNOTATSIYA

Maqolada inson shaxsining har bir yosh davrida tabaqalanishi, o'quvchi shaxsining yosh davri xususiyatlari, inqirozlari, muammolari va yechimlari ko'rib chiqildi. Bir qator tahliliy natijalar xulosalanib, kerakli tavsiya va ko'rsatmalar berib o'tildi.

**Kalit so'zlar:** shaxs, rivojlanish, inqiroz, o'quvchi, yosh davri, psixika, pedagog, psixolog.

### AGE CHARACTERICS OF STUDENTS IN THE FIELD OF EDUCATION

#### ABSTRACT

The article examined the stratification of the human personality at each age, the characteristics, crises, problems and solutions of the age period of the student's personality. A number of analytical results were summarized and given the necessary recommendations and instructions.

**Keywords:** Personality, Development, crisis, students, age period, psyche, educator, psychologist.

**Kirish.** Bugungi kunimizning dolzarb masalalaridan biri – ta'limda o'quvchi yoshlarning har tomonlama rivojlanishi, o'zlashtirish qobiliyatini shakllantirish, o'quvchi shaxsiga to'g'ri baho berish, uning psixologik xususiyatlarini har bir yosh davriga moslab tadqiq etilishi va ayni yosh davrlarida zarur amaliy-uslubiy ko'rsatmalarni berib borishdir. O'quvchi yoshlarning psixologik xususiyatlari deyilganda biz uning qobiliyatlari, harakter xususiyatlari, temperamenti, ongi, tafakkur hosilalari va boshqalarni tushunamiz. Tarixiy jarayonning ayni bir vaqtda ham mahsuli, ham yonma yon sub'ekti bo'lgan inson Shaxsi ijtimoiy tuzilishi bilan joylashayotgan va teng huquqqa ega bo'lgan biologik tuzilishni saqlab qola olmaydi. Shaxs rivojlanishining tabiiy bo'lgan sharoitlari, uning nerv va ichki sekretsiya bezlari sistemasi, jismoniy tuzilishidagi afzalliklari va nuqsonlari uning individual psixologik xususiyatlari shakllanishiga ta'sir ko'rsatadi. Lekin biologik omillar kishi shaxsining tarkibiga singib ijtimoiy omilga aylanib qoladi va keyinchalik ijtimoiy shaklda mavjud bo'ladi. Psixologiyada shaxs ikki omil - biologik va ijtimoiy omillar ta'sirida shakllangan ikkita asosiy kichik struktura mavjudligini ta'kidlaydigan nazariya : «ekzopsixik» va «endopsixik» asosiy o'rin egallaydi. Shaxs tuzilishining kichik strukturasi sifatidagi «endopsixik» tuzilish huddi inson nerv-fiziologik tuzilishi kabi

shaxsning psixik qism va funksiyalarini ketma ketligini ifoda etadi. «Ekzopsixika»ning tashqi muhitga munosabati bilan, ya'ni shaxs qanday bo'lmasin, baribir munosabatga kirishishi mumkin bo'lgan va shaxsga qarama qarshi turadigan tuzilishlarning barchasiga munosabati bilan belgilanadi. «Endopsixika» moyillik, xotira tafakkur va hayol xususiyatlari, irodaviy zo'r berish, tashqi ta'sirlarga beriluvchanlik kabi boshqa hislatlarni, «ekzopsixika» esa kishi munosabatlari sistemasini va uning tajribasini, ya'ni uning qiziqishlarini, ideallarini, moyilliklarini, ustun darajadagi his shakllangan bilimlari va boshqa belgilarini tuyg'ularini, o'z ichiga oladi. Tabiiy asosdagi «endopsixika» ijtimoiy omil bilan belgilanadi, «ekzopsixika» esa biologik jihat bilan bog'liqdir. Ushbu biologik hamda ijtimoiy omillar o'quvchi shaxsining har bir yosh davrida turlicha namoyon bo'ladi va bu omillar natijasi o'laroq yosh xususiyatlarni o'rganish, muvofiq ravishda korreksion ishlarni olib boorish pedagog va psixologlarning vazifasidir[1].

**Asosiy qism.** Ma'lumki, psixologiyada yosh davrlarini tabaqalashning turlicha usullari va yo'nalishlari mavjuddir. Buniing sababi shaxsga yo'nalgan tadqiqot parametrlarining maqsadi va nuqtai nazari turlichaligidadir. Ushbu tadqiqotlar shaxsning umum-mental hamda tarixiy ijtimoiy xususiyatlarini kashf qilib beradi. Birinchilardan bo'lib rus psixologlaridan L.S.Vigotskiy, P.P.Blonskiy, B.G.Anan'ev kabi olimlar rivojlanish bosqichlari haqida o'z qarashlarini adabiyotlarda yoritib berishgan. Keyinchalik esa Yevropa va AQSH olimlari ham turli izlanishlanishlarni olib borishdi va natijada davr tababqalanishiga xos fikrlar mahalliy aholining mental xususiyatlari va etnografik joylashuv nuqtai nazaridan turli fikr mulohazalar kelib chiqishiga sabab bo'ladi boshladi.

L.S.Vigotskiy boshqa olimlar nazariyalariga tanqidiy nazar bilan yondashib, inson shaxsi rivojlanish bosqichlarini ruhiy yangilanish belgisi o'laroq taqdim qildi. Unga ko'ra :

1. Chaqaloqlik davri – 1 oygacha
2. Go'daklik davri – 2 oylikdan 1 yoshgacha
3. Ilk bolalaik davri – 1 yoshdan 3 yoshgacha
4. Maktabgacha davr – 3 yoshdan 7yoshgacha
5. Maktab yoshi davri – 8 yoshdan 12 yoshgacha
6. Puberdat (jinsiy yetilish) – 12 yoshdan 18 yoshgacha.

Vigotskiy o'zining bu nazariyasi ilmiy asoslab bera olgan, biroq juda ham ko'p tortishuvlarga ham sabab bo'lgan. Keyinchalik tabaqalash muammosi faoliyat turiga ko'ra yondashila boshlandi. Mashxur psixolog A.A.Lyubinskaya inson rivojini ayni faoliyat turiga ko'ra tadqiq etdi :

1. Chaqaloqlik davri – 1 oylikkacha
2. Bolalik davri – 1 yoshgacha
3. Maktabgacha tarbiyadan avvalgi davr – 1 yoshdan 3 yoshgacha
4. Maktabgacha tarbiya davri – 3 yoshdan 5 yoshgacha.
5. Kichik maktab yoshi – 7-11, 12 yosh
6. O'rta maktab yoshi (o'spirin) – 13-15 yosh
7. Katta maktab yoshi – 15-18 yoshgacha.

Ko'rinib turibdiki, bolaning rivojlanish davrlari har bir yoshda yetakchi faoliyatga e'tibor qaratilgan. Faoliyatning turi o'zgarishi bilan bolada ham turli psixologik

o'zgarish vujudga kela boshlaydi. Quyida ushbular haqida tahlil va munosabatlarni ko'rib chiqamiz.

Kichik maktab yoshi. Ushbu davrda o'quv faoliyati ko'nikmalarining shakllanishi, o'z-o'zini boshqara bilish, dunyoni anglash munosabati davri hisoblanadi. Intellektual refleksiya (o'z harakatlarini anglash) kichik maktab yoshida nazariy tafakkurni shakllanishi ilan namoyon bo'ladi. Bu yosh davrida o'zini bilish va shaxsiy refleksiya o'z imkoniyati chegaralarini mustaqil bilish sifatida shakllanadi. Uyda va jamoada o'zini qanday tutish normalari, kattalar va tengdoshlar orasidagi shaxslararo munosabatda o'z emotsiyalarini erkin ifoda eta oladi. Oliy hislar shakllanadi :estetik, ma'naviy, axloqiy, o'rtoqlik, hamdardlik, adolatsizlikka chiday olmaslik kabi. Shunga qaramay kichik maktab yoshidagi bolalarda hissiy kechinmalarning beqaror va doimiy emasligi xosdir.

O'quvchi yangi faoliyatga o'tish vaqtida o'zining asosiy faoliyatida nisbatan munosabatida yangilik paydo qiladi va unda burch hissi shakllanadi. U o'qish faoliyatining ahamiyatli ekanini, o'qish shart ekanligini, o'qishdagi shartlar va talablar bajarilishi kerakligi haqida o'ylaydi, yaxshi o'qishga ehtiyoj paydo bo'ladi. Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarning axloqiy onglari I va IV sinfdagi o'qish mobaynida muhim o'zgarishlarga uchraydi va axloqiy sifatlar, bilim va tasavvurlar sezilarli darajadi boyiydi va bola o'zini o'zianglay boshlaydi. Umumiy suratda kichik maktab yoshidagi o'quvchilar doimiy rivojlanishda, yangiliklarni qamrab olishda psixologik xususiyatlari namoyon bo'ladi, inqirozli davr xususiyatlari esa bundan mustasno[2].

O'rta maktab yoshi, o'spirinlik. Ushbu davr odatda inqirozli kechishi va nafaqat pedagoglar balki ota-onalarning ham asosiy e'tibor qaratadigan muammosidir. O'rta sinf o'quvchilarining maktabdagi xulq-atvori va faoliyatining asosiy ko'rinishi, L. I. Bojovichning so'zlariga ko'ra, o'rtoqlari orasida o'z o'rnini topishga intilishdir. O'smirlarda yomon xulq-atvorning eng keng tarqalgan sababi - tengdoshlar guruhida kerakli joyni egallash istagi (va qobiliyatsizligi); yolg'on jasorat, ahmoqlik va boshqalarga o'zini namoyish qilishdir. Ba'zida bu yoshdagi intizom, sinfga qarshi turish istagi, tuzatilmaligini isbotlash istagi deganidir. M.V.Matyuxina ta'kidlaganidek, yuqori natijalarga erishgan maktab o'quvchilari ularning o'qishga bo'lgan munosabatini bilishadi va ularning motivatsiyasida kognitiv qiziqishlar muhim rol o'ynaydi. Ular yuqori darajadagi da'volar va uni oshirish tendentsiyasiga ega bo'ladilar. Kam o'qiyotgan o'quvchilar o'zlarining o'qishga bo'lgan motivatsiyalari haqida kamroq bilishadi. Ularni o'quv faoliyatining mazmuni o'ziga jalb qiladi, lekin kognitiv ehtiyoj kamroq seziladi: ular "muammodan qochish" ning aniq maqsadiga ega va intilish darajasi past. O'rta maktab o'quvchilarining o'quv xatti -harakatlarini rag'batlantirishning o'ziga xos xususiyati shundaki, ularda "o'smirlik munosabati" (axloqiy qarashlar, mulohazalar, baholar, odatda kattalarnikiga to'g'ri kelmaydi va "genetik" barqarorlikka ega bo'lib, yildan -yilga keksalardan o'tadi. o'smirlar kichikroq va pedagogik ta'sirga deyarli mos kelmaydi). Bunday munosabatlarga, masalan, aldashga yo'l qo'ymaydigan talabalarni yoki aldashga ishora qilganlarni qoralash kiradi.

Maktab davridagi yosh va katta o'smirlarning ta'lim faoliyatining xususiyatlari.

O'qituvchi o'quv faoliyatini tashkil qilishda va o'zlashtirish muammolarini tahlil qilishda, yosh va katta o'smirlarning xususiyatlarini hisobga olishi kerak.

Yoshlar (11-12 yosh)

1. Yosh o'smirlarda eng avvalo faollik va ko'p harakatlilik kuzatiladi.
2. Yosh o'smir tengdoshlari jamoasida o'zini namoyon qilishga urinadi, ya'ni hurmat orttirish, fikrlari ma'qullanishi kabi.
3. Yosh o'smirda boshqalarni kuzatish istagi ham yuqori bo'ladi.
4. Har qanday yangi, kutilmagan, g'ayrioddiy, oziq -ovqat beradigan har bir narsaga xos intilish va tasavvur.
5. Topshiriqning jamoaviy shakllari beshinchi sinf o'quvchilari va oltinchi sinf o'quvchilariga yaxshiroq yoqadi, birgalikda harakat qilish, musobaqa yoki o'yin sharoitidagi qoidalar.
6. Yosh o'smirlarning juda yuqori harakatchanligi va faolligi tufayli faoliyatning xilma -xilligi va ish tezligi... Ular pauzalarga chiday olmaydi.

7. Yosh o'smirlar uchun aniq fikrlash ko'proq xarakterlidir.

Katta yoshlar(13-15 yosh)

Katta o'smirlar moyil :

1. Tanqidiy, murosasiz, yuksak adolat tuyg'usi, mustaqillik va bunga intilish.
2. Faol taqlid ob'ektlarini qidirish, biror narsani anglatish istagi, boshqalar orasida mashhurlikka erishish. Bu xususiyatlarning barchasi o'smirning shaxsiyatidagi markaziy neoplazmaning hosilalari - uning tashqi ko'rinishi yetuklik hissi bo'lib hisoblanadi.
3. Katta o'smirlar, avvalgisidan farqli o'laroq, ma'lum ishni talab qiladigan faoliyatga jalb etila boshlaydilar - qat'iyat va mustaqillik.
4. E'tiborli, birinchi maratta dunyoning ma'lum bir rasmini, o'zi haqida umumiy tasavvurni tuzish istagi paydo bo'ladi.
5. Kasbiy hayot nuqtai nazarini shakllantirish bilan bog'liq ta'lim motivlari.
6. Mustaqil kashfiyotlar quvonchini boshdan kechirishga imkon beradigan qidiruv -bilish faoliyatini tashkil etish katta ahamiyatga ega.
7. Xarakterli gipotetik-deduktiv fikrlash, o'smir hamma narsani o'zi tushunishga, hamma narsani tushunishga intiladi, uning atrofidagi hamma narsaga va uning munosabatini tushunishga intiladi (munozaralar, muammoli topshiriqlar).
8. Mustaqil fikr yuritish va umumlashtirishga intilish.
9. Topshiriqlar berish foydalidir: «Sizning ish uslubingizni o'rtoqlaringizning ishi bilan solishtiring, ularning yo'li eng maqbuldir. Sababini tushuntiring? », O'qituvchi bitta o'quvchiga ishning vazifasini shakllantirishni buyurganida, boshqalarga - bu vazifani baholash va uni hal qilish yo'llarini tanlash, uchinchisiga - ish usullarini baholash va ularni sinab ko'rish yo'llarini topishni buyurishi ham samaralidir[3].

**Xulosa.** Yuqorida bayon etilgan fikrlar tadqiq etilishi va amalda qo'llanishi birinchi galda pedagogika fanining maqsadi o'laroq har bir ota-onaning ham vazifasidir. Farzandiga to'g'ri tarbiya berish, uning o'sib rivojlanishida, kamolga yetishida va kelajakda munosib o'rinni egallashida bolaning yosh davri xususiyatiga mos holda muomala qilinishi, yo'naltirilishi zarurdir. Pedagog hodimlar o'quvchi shaxsi bilan ishlash jarayonida ushbu xususiyatlarni inobatga olgan holda kerakli metod, uslubiy o'quv-qo'llanmalardan foydalanishi hamda inqirozli davrlarni hisobga olgan holda ota-ona va tarbiyachilar bilan birgalikda hamkorlikni yo'lga qo'yishi, zarur bo'lganda pedagogik konsilium o'tkazishi talab qilinadi. Har bir yosh davri

xususiyatlariga e'tiborli bo'lish, loqaydlik va bee'tiborlik qilishdan ehtiyot bo'lish lozimdir.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Nuriddinova Nazira Madaminovna, Abduraxmanova Muxtasarxon Fazlitdin Qizi, & Hakimova Maftuna Yoqubjon Qizi (2020). Maktab o'quvchilarining individual-psixologik xususiyatlarini o'rganishning ahamiyati. Science and Education, 1 (3), 508-512.
2. Z.T.Nishonova, N.Kamilova, D.Abdullayeva Rivojlanish psixologiyasi. Pedagogik psixologiya. Toshkent 2018, B432.
3. Chinnigul Nasriddinovna Latipova. "Tarbiyasi qiyin o'smirlar psixologik xususiyatlarini amaliy o'rganish" Science and Education, vol. 3, no. 5, 2022, pp. 1352-1358.